

SHE'RIY TARJIMADA MA'NO VA OHANG UYG'UNLIGI

Xalmuratova Ogulsaltan,

*Nukus davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi
E-mail: ogulsaltanxalmuratova@gmail.com*

Ilmiy rahbar: Matyakupov Sa'dulla,

*Nukus davlat pedagogika instituti
Filologiya fanlari doktori, dotsent
sadulla.yoqub@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli turkman shoiri Gurbannazar Ezizov she'rlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi va unda lirik kechinmaning qayta yaratilishi hamda ohang uyg'unligi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi tafovutlar hamda ularning estetik ta'sir kuchi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tahlil, lirik obraz, ohangdorlik, badiylik, estetik ta'sir.

Аннотация. В данной статье представлен сравнительный анализ перевода стихов известного туркменского поэта Гурбанназара Езизова на узбекский язык, а также воспроизведения в них лирической эмоциональности и мелодической гармонии. Рассматриваются также различия между оригинальным и переведенным текстами, а также их эстетическое воздействие.

Ключевые слова. Сравнительный анализ, лирический образ, мелодия, художественное мастерство, эстетический эффект.

Annotation. This article presents a comparative analysis of the translation of poems by the renowned Turkmen poet Gurbannazar Ezizov into Uzbek, as well as their reproduction of lyrical emotion and melodic harmony. The differences between the original and translated texts, as well as their aesthetic impact, are also examined.

Keywords. Comparative analysis, lyrical imagery, melody, artistic mastery, aesthetic effect.

Kirish va dolzarbligi. Badiiy tarjima adabiyotshunoslikning murakkab yo'nalishi bo'lib, u ikki asar, xalq tafakkur tarzi, madaniyat va qadriyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Bu borada, she'riy tarjimada shakl va mazmunning uyg'un berilishi nihoyatda muhim hodisa. Zero, bir tilning grammatik birliklarini boshqa tilga shunchaki o'girishning o'zi kutilgan natijani ta'minlamaydi. Chinakam tarjimaga she'r ruhiyati, ohangi va badiiy bo'yoqlari ham ko'chishi kerak. Shuning uchun tarjimon, ba'zan asliyatdagi so'zni emas, balki u uyg'otgan hissiy va ma'noviy ta'sirni ikkinchi tilda qayta yaratishga harakat qiladi.

Ma'lumki, badiiy obraz yaratish ijodkor badiiy mahoratiga bog'liq bo'ladi. Tarjimon asliyatdagi obraz mohiyatini saqlagan holda uni tarjima qilinayotgan tilning grammatik imkoniyatlariga moslashtiradi. Agar bu jarayonda tasvir o'z holicha emas, balki mazmunan yaqin bo'lgan ekvivalenti bilan almashtirilsa undagi his-tuyg'uning o'zgarmasligiga ahamiyat qaratish lozim.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Badiiy tarjimaning nazariy masalalari, ayniqsa, she'riy matn tarjimasida ohang va ma'no mutanosibligi bir qator olimlar tomonidan

o'rganilgan. O'zbek tarjimashunoslaridan G'.Salomov, N.Vladimirova, E.Ochilov, K.Musayev, N.Do'sboyeva, G.Odilova, M.Xolbekov, A.Bumatova kabi olimlari ilmiy izlanishlarida adabiy aloqalar va badiiy tarjima muammolari turli asarlar misolida o'rganilgan. Xususan, Sh.Sirojiddinov va G.Odilovalarning "Badiiy tarjima asoslari" (2011) darsligida she'riy tarjimada sintaktik konstruksiyalarni ixchamlashtirish va hissiyotga urg'u berishning ahamiyatini alohida tahlilga tortiladi. Mualliflar fikricha, tarjima asar musiqiylikni yo'qotsa, u o'zining badiiy qimmatini ham yo'qotadi.

Tadqiqot natijalari. She'riy tarjimada ohangni qayta yaratish eng muhim muammolardan biri, chunki har bir tilning o'ziga xos grammatik qurilishi mavjud. Shu sababli tarjimon ma'noni buzmasdan ohangdorlikni ikkinchi til grammatikasi asosida qayta yaratishi lozim bo'ladi. Zero, "She'rda qanchalik sintaktik konstruksiyalar kamaytirilib ma'no va hissiyotga urg'u berilishi, uning obrazlilikini keltirib chiqaradi. She'rning ohangdorligi badiiy matn musiqiylikni ta'minlovchi muhim omildir" [4, S.42]. She'rning sintaktik tuzilishi, ohangdorligi va obrazlilik bu matnning badiiy kuchini belgilab beruvchi ustun bo'lib, tarjimon ushbu elementlarning mohiyatini saqlab qolgandagina tarjima chinakam badiiy ahamiyat kasb etadi.

Turkman she'riyatida Gurbonnazar Ezizov ijodi alohida ahamiyatga ega. Uning she'rlari sodda va ravon tilda yozilgan bo'lsa-da, mazmun jihatidan ancha teran. Shu ma'noda, G.Ezizov she'riyatlari o'zbekcha tarjimalarida turkman va o'zbek she'riyati o'rtasida o'xshashlik, xalqona ohang yaqqol seziladi. Gurbannazar Ezizov ijodi haqida so'z ketganda, shoirning "Serpay" (1977) to'plamiga kiritilgan she'rlar muhim ahamiyat kasb etadi. Undagi she'rlardagi sodda va ravon til, teran mazmun turkman adabiyotshunosligida yuqori baholangan. Shoirning bir qator sara she'rlari Turkiy adabiyot durdonalari qatorida o'zbek tilida nashr qilingan "Turkman zamonaviy adabiyoti antologiyasi" (Toshkent: O'zbekiston, 2022)ga kiritilgan. Ular ichida shoirning "So'z" she'ri o'zining falsafiy mohiyati bilan kishi e'tiborini tortadi.

Turkmanchada:	O'zbekchada:
Sözün agramyny ölçemez tonna, Ölçemez guçyni million kilovat Söz – ýalaňaç pikre gyrmyzy dondir. Söz bar – kime şapbat, Söz bar – kime bagt [3, S.184].	So'zning og'irligin o'lchamas tonna, O'lchamas kuchini million kilovat So'z – yalang'och tuyg'uga qirmizi bir to'n. So'z kimga – tarsaki, Kimlargadir baxt [5, S.13].

Dastlabki bandi yuqoridagidek boshlangan "So'z" she'ri 6 banddan iborat bo'lib, unda shoir so'z qudrati, jozibasi falsafiy mantiq kasb etadi. She'rda so'z – gohi shifo manbayi, gohida esa dard keltirishi o'ziga xos tazodiy mohiyatni vujudga keltiradi. Mazkur she'r Olim To'rayev tarjimasida o'zbek tilida 3 bandni tashkil etgan. Tarjimon she'rda asosiy g'oyani saqlagan holda ayrim izohiy bandlarni qisqartirib ketgan. Yuqoridagi birinchi bandning uchinchi qatori turkman tilida: "Söz - ýalaňaç pikre gyrmyzy dondir" ya'ni: "So'z – yalang'och fikrga qirmizi tondir". Bu yerda shoir "pikre" (fikrga) so'zi orqali so'zning aqliy, tafakkuriy mohiyatini ta'kidlaydi. Ya'ni, fikr so'z bilan

bezanadi, soʻz fikrga hayot va joziba bagʻishlaydi. Qirmizi libos – ruh, hissiyot, hayot nafasi ramzi.

Oʻzbekcha tarjimada esa misra biroz oʻzgargan: “Soʻz – yalangʻoch tuygʻuga qirmizi bir toʻn”. Bu yerda “fikr” soʻzi “tuygʻu” bilan almashtirilgan, natijada soʻz fikrni emas, balki tuygʻuni bezab, unga rang va iliqlik baxsh etadi. Original variantida soʻzning aql bilan munosabati ustuvor boʻlsa, oʻzbekcha tarjimasida u his-tuygʻuga yoʻnaltirilgan. Qolaversa, turkman tilida “gyrmyzy dondir” – qirmizi rang-tus maʼnosini anglatadi. Oʻzbek tarjimada esa u “qirmizi toʻn”ga aylanib qolgan.

Turkmanchada:	Oʻzbekchada:
Söz – bu gazap bilen çakan ýyldyrym Söz – bu gyz näzidir, durleň – durudir” [3, S.184].	Soʻz u gʻazab bilan chaqqan yashindir Soʻz, janon nozidir, dur, gavhar qoshing” [5, S.93].

Asliyat mazmunida soʻzning ikki xil mohiyati ifodalanadi: u bir paytning oʻzida halokatli kuch, shu bilan birga goʻzallik va nafosat manbayi. Ikkinchi misraning oʻzbek maʼnosi quyidagicha yangraydi: “Soʻz – bu qiz nozidir, durlarning duri”. Koʻrinadiki, tarjimada soʻz – nafaqat marvariddek qimmatbaho, balki goʻzal yorning jilvador qoshidek nozik shu bilan qatorida yashin va chaqin.

Taʼkidlash kerakki, “Tarjimada asliyat badiiyligini saqlab qolish original asarning milliy oʻziga xosligini aks ettirish muammosiga borib taqaladi. Maʼlum xalqqa xos va mansub boʻlgan predmet, tushuncha hamda hodisalarni ifodalaydigan soʻzlar muallifga tasvirlayotgan personajlar moddiy-maʼnaviy hayotini real, milliy shaklda bayon qilish imkoniyatini beradi, aniqrogʻi, bu soʻzlar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan bunday soʻzlarni tarjimada adekvat talqin etish asliyatning milliy xususiyatini oʻzga tilda qayta tiklashdek murakkab muammoning eng masʼuliyatli va oʻta mushkul masalalaridan hisoblanadi” [2, S.12].

Beriň maňa on ýurek, on sany apat ýurek,

On ýuregiň her biri bir zat duýmaga gerek [3, S.91].

Shoirning “Yurak” nomli sheʼri oʻzi uchun oʻnta yurak soʻrashi bilan boshlanadi.

Undagi badiiy talqin – sevgi, nafrat, Vatan va onaga boʻlgan his-tuygʻular bir yurakka sigʻdira olmaslik azobi haqida.

Ýyllar şuwlap geçende, baglar başin egende

Siz juwanmy, danamy, ýa bolmasa gur sakgal,

Bir ýurege on ýurek sygdyrmasañ eger-de,

On ýuregiň yer tapmaz bir ýürekli gursakda [3, S.91].

Tarjimada:

Istasang bitta oʻzim beray oʻn yurak kuchin,

Siz juvonmi, yo yigit, yo bir nuroniy banda.

Boshga ogʻir ish tushsa, qattiq sevib qolsangiz,

O‘n yurakka aslo joy topolmassiz bir tanda [5, S.100].

E’tirof etish lozimki, “Asliy badiiy asar yozish ham, uni tarjima qilish ham badiiy ijod namunasidir. Farq shundaki, asliy badiiy asar yaratish erkin ijod bo‘lsa, tarjima – tobe ijod. G‘oya, mazmun, uslub, til, she’riy shakl tanlash tarjimon ixtiyorida emas, u asliyat muallifi aytmoqchi bo‘lgan fikrni qayta badiiy ifoda etish va asarni yozgan ijodkorning o‘quvchiga o‘tkazmoqchi bo‘lgan ta’sirini mumkin qadar o‘zgartirmasdan kitobxonga yetkazishi lozim. Mana shu tobelik qofiyali asarlarni qayta yaratishda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Asliy asar yaratishda qofiya she’r ravonligini ta’minlaydigan vositalardan biri bo‘lsa, tarjima jarayonida u katta qiyinchiliklar tug‘diruvchi, matn tarkibiga ayrim o‘zgartirishlar kiritishga majbur etuvchi unsurga aylanadi. Ammo tarjima amalga oshirilgandan keyin tarjimonning og‘ir ijodiy mehnati evaziga u yana asliyatdagi singari she’r ravonligini ta’minlovchi unsurlardan biri bo‘lib qoladi” [1, S.265].

Kuzatiladiki, tarjimada she’r mazmuni ancha o‘zgarishga uchragan. Yuqoridagi bandni so‘zma-so‘z tarjima qilsak quyidagicha ma’no anglashiladi:

Yillar shuvlab o‘tganda, bog‘lar boshin ekkanda

Siz juvonmi, donomi, yoinki bir nuroniy,

Bir yurakka o‘n yurak sig‘dirmasang agarda

O‘n yuraging joy topmas bir yurakli badanda (U.X.).

She’r birinchi satri tabiat manzarasi bilan boshlangan. Yillar shamoldek tez o‘tishi, vaqt o‘tib bog‘lardagi daraxtlar ham yillardan so‘ngra o‘zining sarvdek qomatini egishi anglashiladi. Lekin tarjimada mazmuni butunlay o‘zgartirilib, asliyatdagi vaqt, manzara, falsafiy ohang butunlay boshqacha ko‘rinish kasb etgan. Keyingi qatorda “siz juvon bo‘lsangiz ham, dono bo‘lsangiz ham, jamoat orasida hurmatli bo‘lsangiz ham baribir yurakni kichik tanga sig‘dira olmaysiz” degan fikr ilgari suriladi.

Bu yerda asliyatdagi “dono” so‘zining o‘rniga “yigit” so‘zi, “gur sakgal” so‘zi o‘rniga esa “nuroniy” so‘zidan foydalanilgan. “Gur sakgal” ko‘pni ko‘rgan kishi ma’nosini beradi, bitta qatorda dono va nuroniy so‘zlari ma’no jihatdan yaqin bo‘lgani uchun tarjimon “yigit” so‘zini qo‘shgan bo‘lishi mumkin. Keyingi ikki satrga ham ba’zi o‘zgartirishlar kiritilgan. Tarjimaga asliyatda mavjud bo‘lmagan “sevib qolish” qo‘shilgan.

Xulosalar. Kuzatiladiki, she’riy tarjima ancha nozik, hissiyotlarga boy, shuningdek, o‘ta mas’uliyatli ijodiy jarayon sanaladi. Gurbannazar Ezizovning Turkiy adabiyot durdonalari safida Olim To‘rayev tomonidan o‘zbekchaga tarjima qilingan va “Turkman zamonaviy adabiyoti antologiyasi” (Toshkent: O‘zbekiston, 2022)ga kiritilgan she’rlarida bir qancha yetishmovchiliklar, ma’noga ta’sir qilish muammolari seziladi. Bu masala ayniqsa, ayrim so‘zlarning ikki tilda shakliy o‘xshashliklari sababli ularning mazmuniy mohiyatini yaxshi anglamagan yoki bilmaslikdan sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakayeva M. Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari: Filol. fan. dokt... diss. – Toshkent, 2004.
2. Dosbayeva N. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash (Amerika hikoyalari tarjimasi misolida): Filol. fan. fal. d-ri (PhD). ... diss. avtoref. – Toshkent, 2017.
3. Ezizov G. Serpaý. – Ashgabat: Turkmenistan, 1977.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
5. Turkiy adabiyot durdonalari. Turkman zamonaviy adabiyoti antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

